XALÍQ DEPUTATLARÍ ÁMIWDÁRYA RAYONI KEŃESINIŃ SHESHIMI

XALQ DEPUTATLARI AMUDARYO TUMANI KENGASHINING QARORI

Gurlan shox ko`chasi 49-uy, +998 61 515 3160, amudaryokengash@umail.uz

2026-jıl 30-mart VII-19-28-13-181-K/26 Ámiwdárya rayonı

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori bilan xalq deputatlari tuman Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Amudaryo tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Amudaryo tumani hokimining moliya, iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining Amudaryo tumani bo’yicha 2026-yilda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig’imlarning cheklangan stavkalarini oshirish bo’yicha hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Amudaryo tumani hududida 2026-yil uchun alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno)

realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman mahalliy budjetiga yo‘naltirilsin.

4. Tuman hokimining moliya, iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Yusupov), tuman soliq inspeksiyasi (J.Raximov) mazkur qarorning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini ta’minlash vazifasi tuman hokimining moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i F.Yusupov hamda qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror “Taraqqiyot ko`zgusi” gazetasida hamda tuman hokimligi veb saytida e’lon qilinsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Kengash raisi **YULDASHEV ALISHER YALGASHEVICH**

Xalíq deputatlarí Ámiwdárya rayoni
Keńesiniń
2026-jıl 30-martdaǵı
VII-19-28-13-181-K/26 -sanlı sheshimine
1-qosımsha

Amudaryo tumani hududida 2026-yil uchun alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning miqdorlari

T/r	Yig‘im turi	Foizlar (20% gacha)	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)
			Boshqa aholi punktlari
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	20 foiz	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	20 foiz	180 000